

Sidiqova Umida

Denov tadbirkorlik va pedagogika insituti

Pedagogika fakulteti Psixalogiya talim yo'nalishi 1-kurs talabasi

QIYOSIY PSIXALOGIYA

ANNTATSIYA: Qiyosiy pedagogika - bu turli ta'lif tizimlarini va pedagogik amaliyotlarni o'rganish orqali ta'lif jarayonlarini chuqurroq tushunishga yordam beradigan ilmiy soha. U o'z ichiga dunyoning turli mamlakatlaridagi ta'lif tizimlari, pedagogik g'oyalar, metodlar va strategiyalarni solishtirishni oladi. Ushbu maqolada qiyosiy pedagogikaning ahamiyati, uning asosiy tamoyillari va o'rganish uslublari haqida so'z yuritiladi.

KALIT SO'ZLAR: qiyosiy pedagogika, talim,tarbiya,metod,amaliyot,tamoyil,ilmiy ish,talim tizimi.

АННОТАЦИЯ: Сравнительная педагогика – научная область, способствующая более глубокому пониманию образовательных процессов путем изучения различных образовательных систем и педагогических практик. Он включает в себя сравнение образовательных систем, педагогических идей, методов и стратегий в разных странах мира. В данной статье рассматривается значение сравнительной педагогики, ее основные принципы и методы обучения.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: сравнительная педагогика, образование, воспитание, метод, практика, принцип, научная работа, образовательная система.

KIRISH

1. Qiyosiy pedagogikaning asosiy maqsadi - turli mamlakatlardagi ta'lif tizimlarining o'zaro farqlarini va o'xshashliklarini aniqlash, shu bilan birga, pedagogik jarayonlarning samaradorligini baholashdir. Bu soha o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, mamlakatlar o'rtasidagi pedagogik tajribalarni o'rganish, har bir tizimning kuchli va zaif tomonlarini ko'rsatishga yordam beradi. Shu tariqa, qiyosiy pedagogika ta'lif tizimlarini takomillashtirish, yangi metodlar va strategiyalarni kiritish imkonini yaratadi.

2. Ta'lif tizimlarini takomillashtirish

Har bir mamlakatda ta'lif tizimi o'ziga xos an'analar va tarixga ega. Qiyosiy pedagogika yordamida turli tizimlarning samaradorligi tahlil qilinadi va eng yaxshi tajribalar o'rganiladi. Masalan, Yaponianing ta'lif tizimida o'quvchilarni o'zini-o'zi boshqarishga o'rgatish, shuningdek, guruhda ishlashga katta ahamiyat beriladi. Boshqa mamlakatlarda esa individual yondashuvlar, o'qituvchining avtoriteti va ta'lifda innovatsiyalarni joriy etish muhim hisoblanadi.

3. Pedagogik g'oyalarni o'rganish va ularga tahlil qilish

Qiyosiy pedagogika turli pedagogik g'oyalarni solishtirishga imkon beradi. Misol uchun, pedagogik uslublarning farqlari, o'qituvchining roli, o'quvchilarning faolligi va o'zini-o'zi tarbiyalashdagi yondashuvlar o'rganiladi. Bu ta'lif metodlarini samarali ravishda yaxshilashga yordam beradi.

4. Xalqaro ta'lif tizimlari bo'yicha bilimlarni kengaytirish

Qiyosiy pedagogika global ta'lif masalalariga yondashishni rivojlantiradi. Boshqa mamlakatlar tajribasini o'rganish, o'qituvchilarga yangi pedagogik yondashuvlarni sinab ko'rishga imkon yaratadi. Shu tarzda, ta'lif sohasida xalqaro hamkorlik va tajriba almashish rivojlanadi.

Qiyosiy pedagogikada o'rganish metodlari

1. Tadqiqotlar va anketalar

Turli mamlakatlardagi o'qituvchilar, o'quvchilar va mutaxassislar o'rtasida so'rovlар va anketalar o'tkazish orqali ta'lif tizimlarining farqlari va o'xshashliklari aniqlanadi. Bu metod orqali ta'lif jarayonidagi eng samarali elementlar va ularning natijalari o'rganiladi.

2. Yuzma-yuz va masofaviy tahlillar

Ta'lif tizimlarining o'rganilayotgan mamlakatlarda bevosita kuzatilishi va tahlil qilinishi mumkin. Bu metod orqali o'quvchilar bilan bevosita aloqada bo'lib, ta'lif tizimining samaradorligini baholash mumkin.

1. Qiyosiy tahlil

Har bir mamlakatdagi ta'lif tizimi, o'qituvchilar va o'quvchilarning yondashuvlarini solishtirish va tahlil qilish orqali, muvaffaqiyatli pedagogik g'oyalar va usullarni ajratib olish mumkin. Misol uchun, o'quvchilarni faollashtirish uchun ishlatilgan metodlar yoki o'qituvchilarni tayyorlash tizimining farqlari o'rganiladi. **Global ta'lif tizimlarini yaxshilash**

Har bir mamlakatning ta'lif tizimi o'ziga xos va o'ziga xos tarixiy, madaniy shart-sharoitlarga asoslanadi. Shu sababli, ta'lif tizimlarini solishtirish orqali ularning ijobjiy tomonlarini o'rganish va dunyo miqyosida ta'lifni takomillashtirish mumkin. Masalan, Finlyandiyada ta'lif tizimi o'zining yuqori samaradorligi bilan mashhur bo'lib, boshqa mamlakatlar bu tizimdan o'rganishmoqda. Shu tarzda, qiyosiy pedagogika o'quvchilarning o'rganish imkoniyatlarini oshirishda muhim rol o'ynaydi.

2. Pedagogik metodlar va yondashuvlarni takomillashtirish

Qiyosiy pedagogika yordamida turli pedagogik metodlar va yondashuvlar solishtiriladi. Har bir pedagogik metodning samaradorligi o'rganiladi, bu esa o'qituvchilarga yangi yondashuvlar va metodlarni sinab ko'rishga imkon beradi. Misol uchun, o'quvchilarga guruhsda ishlashni o'rgatish, faol ta'lif metodlarini joriy etish va o'qitish jarayonida texnologiyalardan foydalanish kabi yondashuvlar qiyosiy pedagogika orqali amalga oshiriladi.

3. Xalqaro ta'lif tizimlarida tajriba almashish

Xalqaro tajriba almashish, ta'lif tizimlarining o'rganilishini kengaytirish, zamonaviy pedagogik yondashuvlarni takomillashtirishda ahamiyatlari rol o'ynaydi. Ta'lif tizimlarini solishtirish orqali bir mamlakatda muvaffaqiyatli bo'lgan usullar boshqa mamlakatlarda sinab ko'rishi mumkin. Bu tajriba almashish jarayoni xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga yordam beradi. Qiyosiy pedagogika bir nechta ilmiy va amaliy metodlarni o'z ichiga oladi. Asosiy metodlar quyidagilar:

4. Tadqiqotlar va anketalar

Turli mamlakatlardagi o'qituvchilar, o'quvchilar va pedagogik mutaxassislar o'rtasida o'tkazilgan so'rovlар va anketalar orqali ta'lif tizimlari va metodlarining farqlari aniqlanadi. Bu usul ta'lif jarayonidagi o'zgarishlarni va muvaffaqiyatli metodlarni o'rganishga yordam beradi.

5. Bevosita kuzatish

Ta'lif tizimlarini o'rganishning yana bir usuli – bevosita kuzatishdir. Ta'lif jarayonlari, o'qituvchilar bilan aloqalar, o'quvchilarning faoliyi va o'qish metodlari bevosita kuzatiladi. Bu metod orqali turli mamlakatlarda amalda bo'layotgan yondashuvlar va usullar tahlil qilinadi.

1. Qiyosiy tahlil

Qiyosiy tahlil metodida turli ta'lif tizimlari va pedagogik amaliyotlar solishtiriladi. Shu orqali bir tizimning ijobjiy tomonlari va boshqalar bilan solishtirganda kamchiliklari aniqlanadi. Bu tahlilning natijalari ta'lif jarayonini yaxshilash uchun asos bo'lib xizmat qiladi. So'nggi vaqtarda respublikamizda jahon ta'lif tizimini qiyosiy o'rganish va ilg'or tajribalarni respublikamizda ommalashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasida qiyosiy pedagogik tadqiqotlarga hozirgi kundagi qiziqish ikkita eng muhim tendensiyaga bog'liqligi bilan tushuntiriladi. Birinchisi yurtimizning mustaqillikka erishishi va milliy ta'lif tizimining shakllanishi va rivojlanishi bo'lsa, ikkinchisi - globallashuv va jamiyatni

axborotlashtirish, mavjud jahon tendensiyalari hamda jahon ta'lim sarhad-lariga integratsiyaning zarurligidadir. Iqtisodiyotning globallashuv jarayoni, transmilliy kompaniyalar, jahon moliyaviy korporatsiyalari va shu kabi tashkilotlarning rivojlanishi dunyoning turli mamlakatlaridagi ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan bo'lajak mutaxassislarga qat'iy talab qo'ymoqda. Bu esa o'z navbatida turli davlatlar ta'lim tizimini jahon standartlariga moslashtirish va tenglashtirish masalasidir. Uzluksiz ta'lim tizimidagi barcha bo'g'lnlaming mavjud holati va rivojlanish istiqbollarini tahlil qilish bugungi kun talabi bo'lib qolmoqda. Yurtimiz ta'lim sohasida erishilgan yutuqlarni yanada yuksaltirish, bu sohada rivojlangan davlatlar bilan raqobatbardosh bo'la olish uchun ta'limni isloh qilishni davom ettirish, uni modernizatsiyalash, ta'limni rivojlantirish borasidagi zamonaviy nazariyalami o'rganish, taqqoslash, tahlil qilish va o'quv tarbiyaviy jarayonga tadbiq etish, bo'lajak tarbiyachilarga milliy istiqlol g'oyasi va bugungi kun mafkurasi talablari asosida jahon pedagogikasining aktual masalalari ayniqsa, rivojlangan davlatlar ta'lim tizimi, ta'limning turlari, ta'lim-tarbiya jarayonlarini o'ziga xos xususiyatlari va tashkil etish shakllari, amalga oshirish yo'llari haqida ma'lumot berish va shu orqali ta'lim-tarbiya jarayonini yaxshilash, ta'lim mazmunini rivojlantirish, uni jahon talablari darajasiga olib chiqish va yuqori malakali kadrlar tayyorlash masalalari mazkur qo'llanmaning asosiy maqsadidir. Hozirgi kungacha qiyosiy pedagogika va chet el pedagogikasi - bir fan sohasining turlicha nomlanishi bo'lib, sinonim tushunchalardir degan qarash mavjud. Biroq mazkur yondashuv aniq tuzatish kiritishni talab etadi. Chet el pedagogikasi tavsify xarakterga ega bo'lib, iming asosiy maqsadi - chet el ta'limining o'ziga xosligini tavsiflovchi hodisa va dalillami to'plash va tizimlashtirishdir. Shubhasiz, bu jahon pedagogik tajribasini chuqur va har tomonlama to'liq o'rganishning muhim jihatni va zaruriy sharti. Biroq qiyosiy pedagogika o'zida zaruriy nazariy- metodologik komponentlarni tashkil etadi. To'g'ri ayrim holatlarda qiyosiy pedagogika axboriy funksiyani ham bajaradi, biroq uning asosiy funksiyasi turli mamlakatlardagi o'ziga xosliklami hisobga olgan holda ta'limni rivojlantirishning muhim global qonuniyatlarini va tendentsiyalarini aniqlash hamda tahlil etishdir. Qiyosiy pedagogika tushunchasiga komparativist olimlar turlicha ta'rif beradilar. Rus olimi M.Sokolova qiyosiy pedagogikani ta'lim-tarbiya pedagogik nazariyasi va amaliyoti rivojlanishining yo'nalishlari, umumiy va o'ziga xos xususiyatlarini o'rganadigan, iqtisodiy, ijtimoiy - siyosiy va falsafiy asoslari hamda milliy o'ziga xoslikni ochib beradigan soha deb qaraydi. N.Belkanov qiyosiy pedagogikani ta'limdagи globallashuv, baynalmilallik va integratsiya natijasi deb qaraydi. Uning fikricha, qiyosiy pedagogikada taqqoslash -bu ta'lim va pedagogika sohasida dunyo tendensiyalari bilan aloqadorlikni anglash demakdir. K.Musmnning ta'kidlashicha, qiyosiy pedagogika dunyoning turli davlatlarida turli tarixiy davrlarda ta'lim-tarbiya pedagogic nazariyasi va amaliyotining holatini o'rganadi, pedagogika va maktab amaliyotining xalqaro tajribasini o'rganish va foydalanish yo'llari hamda shaklini aniqlaydi, o'z davlatida ta'lim-tarbiya modelining kelajagini bashorat qiladi. B.L.Vulfson esa qiyosiy pedagogikani pedagogik fanlarning sohasi deb qaraydi va u qiyosiy aspektida turli davlat, hudud umuman dunyo miqyosida, turli tarixiy davrlarda pedagogik nazariya va amaliyotning mavjud holati, rivojlanish tendensiyalari va qonuniyatlarini o'rganadi, deb ta'riflaydi. Ijtimoiy hayotning turli sohalarida integratsion jarayonlarning rivojlanishi olimlar oldida xalqaro tadqiqotlami o'tkazishning qanday eng maqbul shakl va usullarini topish, qo'lga kiritilgan natijalardan milliy ta'lim tizimining o'ziga xosliklarini hisobga olgan holda samarali foydalanishni qay tarzda ta'minlash, xalqaro tadqiqotlar ishtirokchilarining nuqtai nazarlari va qarashlarini uyg'unlashtirishga qanday qilib erishish kabi qator savollarni ko'ndalang qo'ymoqda. Mazkur savollarga aniq va to'liq javobni qiyosiy pedagogikaning nazariy-metodologik mummosi sifatida qarash orqali olish mumkin. «Qiyosiy pedagogika» fanining bozor iqtisodiyoti jarayonidagi tutgan o'rni va ahamiyati, talaba yoshlarda milliy mafkuraviy qarashlarni shakllantirish, jamiyatning ilg'or nufuzli kuchi sifatida sog'lom e'tiqodni, erkin fikrlovchi, komil insonlar bo'lishi jarayonidagi o'rni va rolini aniqlashdan iborat. Bo'lg'usi o'qituvchilarni Markaziy Osiyo va jahon xalqlarining pedagogik me'rosi bilan tanishtirish jarayonida ularda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat hissini hosil qilish, ta'limni boshqarish muassasalarini xodimlari jamoasiga jahon pedagogikasida, ayniqsa taraqqiy etgan

mamlakatlarda ta’limning amalga oshirilishi, istiqboli to‘g‘risida batafsilroq ma’lumot berish kabi vazifalar amalga oshiriladi. “Qiyosiy pedagogika” fani o‘zining taraqqiyot bosqichlaridagi turli xil qarashlar bilan birqalikda, barcha ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy fanlar bilan aloqadorligi, hamda uning ilmiy-nazariy asoslariga tayanib maktabgacha pedagogika, etika, estetika, bola anatomiysi, etnopedagogika, pedagogik sotsiologiya, falsafa, madaniyat, ta’lim menejmenti kabi fanlar bilan bevosita bog‘liq holda yoritib boriladi va bular fanning metodologik asoslari hamda ilmiy tadqiqot metodlari borasida katta ahamiyatga ega bo‘lib, talabalarda mustaqil izlanish, ularda ilmiy qiyoslay olish mahoratlarini shakllantiradi. Shuningdek, qiyosiy pedagogik fanlarga oid bo‘lgan falsafa, sotsiologiya, xronologiya, iqtisodiyot kabi fan sohalari bilan ham bog‘liq. Bugungi kunda fanning pedagogika, qiyosiy pedagogika sohalarida falsafaning metodologik funksiyalari tan olingan, zero falsafa pedagogik tajribani anglashda va pedagogik konsepsiyalami yaratishda nazariy maslak hisoblanadi. Undan tashqari qiyosiy pedagogik tadqiqot doirasida pedagogik bilimlami olish jarayoni falsafaning umumiyligini qonuniyatlariga bo‘ysunadi. Shuningdek, qiyosiy pedagogik fanlarga oid bo‘lgan falsafa, sotsiologiya, xronologiya, iqtisodiyot kabi fan sohalari bilan ham bog‘liq. Bugungi kunda fanning pedagogika, qiyosiy pedagogika sohalarida falsafaning metodologik funksiyalari tan olingan, zero falsafa pedagogik tajribani anglashda va pedagogik konsepsiyalami yaratishda nazariy maslak hisoblanadi. Undan tashqari qiyosiy pedagogik tadqiqot doirasida pedagogik bilimlami olish jarayoni falsafaning umumiyligini qonuniyatlariga bo‘ysunadi. Bu kurs bo‘yicha talabalar bilimlari va ko‘nikmalariga qo‘yiladigan talablar quyidagilardan iborat: talabalar qiyosiy pedagogikadan egallagan nazariy bilimlarini, amaliyotda qo‘llay olishlari lozim. Shuningdek, kurs bo‘lajak o‘qituvchilarni ixtisosligi bo‘yicha bilimlarni egallash davomida o‘zining ma’naviy, axloqiy darajasini kengaytiradi, jahon mamlakatlarining ta’lim sohasida erishayotgan yutuqlaridan o‘quv-tarbiya jarayonida foydalanadi. Har bir xalq o‘z yashash tarzi, tarihiy va ijtimoiy darajasi, milliy madaniyatiga ega ekanligiga mos ravishda, o‘ziga xos takrorlanmas milliy-tarbiya madaniyatiga ega bo‘lishi va bulardan hayotda foydalana bilishi kerakligi ilmiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. O‘zbekiston ta’lim tizimi keng qamrovli islohotlami hamda qayta qurish vazifalarini amalga oshirib kelmoqda. Bulardan ko‘zda tutilgan maqsad ta’lim tizimini demokratlashtirish, uning insonparvarlik tamoyillarini rivojlantirish, shu asosda o‘quv-tarbiya ishlari mazmunini, uning shakli va metodini kompleks yangilash hamda yanada takomillashtirishdan iborat. Bu vazifalarni muvafaqqiyatli hal qilishning muhim shartlaridan biri chet el ta’lim tizimi va pedagogikasi tajribalarni o‘rganishni talab etadi. Bu tajribalarni o‘rganish orqali ta’lim-tarbiya tizimini yangilashda qo‘srimcha boy manbalarga ega bo‘lamiz. Bu yo‘lda bizga pedagogika fanlari tizimi dagi sohalardan biri - “Maktabgacha ta’limda qiyosiy pedagogika” fani katta yordam beradi. Qiyosiy pedagogika - jahon, mintaqaviy, milliy ta’lim tizimi rivojining umumiyligini va alohida istiqbolli yo‘nalishlari, qonun va qonuniyatlarimng o‘ziga xosliklarini taqqoslash haqidagi fan. “Maktabgacha ta’limda qiyosiy pedagogika” fani global doirada maktabgacha ta’lim tizimi rivojlanishining holati, assosiyo yo‘nalishlari va qonuniyatlarini tahlil etadi, milliy va hududiy o‘ziga xosliklardagi umumiyligi ko‘rinishlami ochib beradi, xalqaro pedagogik tajribaning ijobiy va salbiy jihatlari, milliy pedagogik madaniyatni boyitish shakl va usullarini aniqlashtiradi. “Maktabgacha ta’limda qiyosiy pedagogika” kursining maqsadi talabalarini fanning nazariy metodologik muammolari, taraqqiyot bosqichlari, Chet el maktabgacha ta’limi, uning mazmuni, tuzilishi, rivojlanishi o‘ziga xos xususiyatlari, ta’lim-tarbiya orasidagi o‘zviyliklar, ilg‘or g‘oyalar va tajribalar xususidagi bilimlar bilan tanishtiradi. “Maktabgacha ta’limda qiyosiy pedagogika” kursining asosiy vazifasi bo‘lajak tarbiyachilarga milliy istiqlol g‘oyasi va bugungi kun mafkurasi talablari asosida jahon pedagogikasining aktual masalalari ayniqsa, rivojlangan davlatlar maktabgacha ta’lim tizimi, ta’limning turlari, ta’lim-tarbiya jarayonlarini o‘ziga xos xususiyatlari va tashkil etish shakllari, amalga oshirish yo‘llari haqida ma’lumot berish. Shu orqali ta’lim-tarbiya jarayonini yahshilash, ta’lim mazmunini rivojlanish, uni jahon talablari darajasiga olib chiqish va yuqori malakali kadrlar tayyorlashdan iborat. Qiyosiy pedagogikaning vazifalariga quyidagilarni kiritish mumkin.

2. 1. Chet el ta'lim tizimi rivojining real jarayonlarini aks ettiruvchi yangi va yaxshi, ma'lum bo'lmagan jihatlarini tizimli bayon etish.
3. 2. Jahon mamlakatlarida ta'lim tizimi rivojlanishining muhim qonuniyat va tendentsiyalarini aniqlash hamda tahlil etish va tizimlashtirish.
4. 3. Turli davlatlar ta'lim tizimi sifati va samaradorligini baholashning ilmiy asoslangan mezonlarini aniqlash.
5. 4. Talim sohasidagi siyosatning asosiy yo'nalishlarini aniqlash.
6. 5. Uzluksiz ta'lim tizimidagi barcha bo'g'lnlaming mavjud holati va rivojlanish istiqbollarini tahlil qilish.
7. 6. Turli davlatlar ta'lim tizimining rivojlanishidagi salbiy va ijobiy jihatlari, yutuqlari va kamchiliklarini aniqlash.
8. 7. Ta'lim sohasida ijobiy va salbiy holatlarning yuzaga kelishini aniqlovchi ijtimoiy - siyosiy va iqtisodiy sharoitlami o'rghanish.
9. 8. Bir davlat ta'lim tizimini boshqa davlatga ko'chirishning natijalarini bashorat qila olish.
10. 9. O'rghanilayotgan ta'lim tizimidagi umumiylig va o'ziga xoslik jihatlarini aniqlash. Qiyosiy pedagogikaning asosiy funksiyalari:
 11. 1. Mutaxassislamning chet el tajribasini o'rghanishlarini yengillashtirish maqsadida pedagogik hujjatlardagi atama va tushunchalarni unifikatsiyalash va tartibga solish.
 12. 2. Turli ta'lim modellari va talim sohasida amalga oshirilayotgan siyosiy islohotlarni taqqoslash.
 13. 3. Kelgusida ta'limni rivojlantirishning istiqbolli va ishonzchli yo'llarini bashoratlash.
 14. 4. Ta'lim tizimini rivojlantirishning strategik rejasini ishlab chiqish.

Qiyosiy pedagogika - mustaqil ilmiy bilim sohasi sifatida o'zining obyekt, predmet, maxsus funksiya va vazifalariga ega. Qiyosiy pedagogikaning obyekti sifatida V.L.Vulfson va Z.A.Malkova hozirgi zamон ta'lim tizimining rivojlanishini, M.L.Rodionov dunyoning turli davlatlaridagi pedagogika nazariyasi va amaliyotini, A.N.Djurinskiy esa hozirgi davr ta'lim va tarbiyasini tushunganlar. Maktabgacha ta'limda qiyosiy pedagogika fanining obyekti- zamonaviy dunyoda insonni ijtimoiy-madaniy rivojlantirish jarayoni, shuningdek, global, hududiy va milliy doirada ijtimoiy institut hisoblangan maktabgacha ta'lim tizimi. Qiyosiy pedagogikaning predmeti haqida pedagog olimlar turlicha fikr bildiradilar. Jumladan, polyak olimi B.Navrochinskiy qiyosiy pedagogikaning tadqiqot predmeti maktab tizimi, ta'lim - tarbiya metodlari, sharoitlari va omillari, bu sohada erishilgan natijalar va pedagogik nazariya deb hisoblaydi. B.Suxodolskiy esa qiyosiy pedagogikaning tadqiqot predmeti ancha keng ekanligini, u ta'lim mazmuni va metodlari, o'qitishni tashkil qilish masalalarini ham qamrab olishini ta'kidlaydi. Rus olimi A.M.Stolyarenko qiyosiy pedagogikaning predmetini pedagogika va maktab amaliyoti bo'yicha butun dunyo miqyosidagi tajribalar deb hisoblaydi va qiyosiy pedagogikaning asosiy maqsadi pedagogika va maktab amaliyotini takomillashtirish bo'yicha dunyo ta'lim tizimi tajribalariga asoslangan tavsiyalami ishlab chiqishdan iborat deb ta'kidlaydi. Yuqorida fikrlardan xulosa qilib aytadigan bo'lsak, qiyosiy pedagogikaning predmeti turli davlatlarda, turli tarixiy davrlarda mavjud bo'lgan ta'lim tizimidir. Maktabgacha ta'limda qiyosiy pedagogika fanining predmeti - jahon (chet el va milliy) pedagogik tajribani rivojlanish holati, tendentsiyalari va qonuniyatlarini hamda zamonaviy milliy pedagogik madaniyat Ta'lim-tarbiyada samarali islohotlarni amalga oshirishni talab etilayotgan hozirgi davrda chet el tajribasini o'rghanish ayni muddaodir. Rivojlangan xorijiy mamlakatlarda ta'lim-davlat ichki siyosatiga faol tasir etuvchi ijtimoiy jarayon. Yaponlar «maktab insonlarni yaxshilaydi» deb hisoblaydilar. Ta'lim sohasiga g'amxo'rlik qilish taniqli siyosatchilardan doim diqqat e'tiborida bo'lgan. (R.Reygan, M.Techcher, F.Mitteran va b). Rivojlangan mamlakatlardagi pedagogik tadqiqotlar o'quv dasturlarini takomillashtirish va qayta qurishga qaratilgan. Maktab dasturlarini o'zgartirish 2 asosiy yo'nalishda amalga oshiriladi: ekstensiv va intensiv. 1-o'quv muddati uzaytiriladi, o'quv materiallari hajmi ko'paytiriladi. 2-mutlaqo yangi dastur yaratiladi. Ko'pchilik mutaxassislar 2-yo'lni ma'qulroq deb hisoblamoqdalar. O'quv dasturlariga ma'lum

cheklanishlar kiritish alohida predmetlarni o‘rganishni kuchaytirib, o‘quvchilarni ortiqcha «yuk» dan xalos qiladi. Bunga erishish uchun o‘quv kurslari integratsiyasi talab qilinadi.. Hozirgi paytda rivojlangan mamlakatlar o‘quv dasturiga integratsiyalashgan kurslarni kiritish to‘la amalga oshirildi. (Fransiyada o‘quv soatlardan 61%, B.Britaniyada 15% ini integratsiyalashgan kurslar tashkil etadi.) Integratsiyalashgan o‘quv dasturlari yondosh o‘quv kurslarini o‘zak predmet va g‘oya atrofida jipslashtiradi, bu o‘quvchilarga ijodiy tafakkur yurgizishga yordam beradi. Lekin integratsiyalashgan o‘quv kurslari mutlaq ko‘pchilik uchun mo‘ljallangan bo‘lib, ular tarkibidagi fanlardan biri kimgadir juda zarur bo‘lsa, kimgadir unchalik emas. Bu muammoni hal etish o‘quvchilarni u yoki bu kursga bo‘lgan extiejini to‘laroq qondirish uchun maktablar aloxida fanlardan chuqurlashtirilgan kurslarni tashkil etmoqda. Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda mehnat ta’limi hamda kasbga yo‘naltirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar alohida e’tiborga loyiq. AQShda 1977- yil «Mehnat faoliyatiga tayyorlash akti» qabul qilingan, unga muvofiq, masalan, avtomobilarni ta’mirlash, kompyuterlarni yig‘ish kabi amaliy faoliyat amalga oshiriladi. Fransiyada mehnat ta’limi uchun ajratilgan soatlar 1,5 barobar oshirilgan. Buyuk Britaniya da 1973 yilgi «Mexnat ta’limi va kasbga tayyorlash» aktiga binoan maktab o‘quvchilari bir qancha sohalar bo‘yicha majburiy kasb-kor dasturini o‘zlashtirmoqdalar. O‘quv jarayonini tabaqlashtirish muammolarini tadqiq etish chet elda hamon davom etmoqda. Rivojlangan davlatlarda iqtidorli bolalarga e’tibor tobora ortib bormoqda. Iqtidorli bolalar maktablari g‘arbdan 60 yillardayoq paydo bo‘lgan. AQShning ayrim shaharlarida oliv toifali bolalar bog‘chalari ochilgan, ularda 4-5 yoshli bolalar maktab dasturi bo‘yicha o‘qitiladi. Shuningdek aqli zaif bolalar uchun ham maxsus maktablar tashkil etilmoqda. Rivojlangan maktablar ta’lim tizimida o‘quvchilarning mustaqil ishlashiga katta e’tibor qaratilmoqda. Masalan, Germaniyada sinf o‘quvchilari sonini qisqartirish hisobiga ular bilan individual ishlashni takomillashtirish sari yo‘l tutilmoqda. Bunda o‘quvchilarning har biriga individual paketlar tarqatiladi. Topshiriqlarni o‘quvchilar mustaqil bajaradi, lozim bo‘lganda o‘qituvchilardan konsultatsiya oladi. Shubhasiz chet el ta’limidagi yuqoridagidek ibratli jihatlarni mamlakatimiz ta’lim tizimiga olib kirish mustaqil respublikamizda o‘quv tarbiya - ishlarini isloq qilish jarayonini tezlashtiradi.

Xulosam: Qiyosiy pedagogika – ta’lim tizimlarini solishtirish orqali ta’lim jarayonini takomillashtirish va yangi pedagogik metodlarni rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Mamlakatlar o‘rtasidagi tajriba almashish va eng yaxshi pedagogik g‘oyalarni o‘rganish ta’lim sifatini oshirishga yordam beradi. Bu soha, ayniqsa, global ta’lim tizimlarining zamonaviy talablarga javob berishini ta’minalash va yangi pedagogik yondashuvlarni ishlab chiqishda samarali vosita sifatida xizmat qiladi.